

KO'P MIELOMA BILAN KASALLANGAN BEMORLARNING LABORATOR VA MORFOLOGIK KO'RSATKICHLARI XUSUSIYATLARI

Qoraqolpoq Tibbiyot instituti

Ichki kasalliklar priptidevtikasi kafedrası assistenti

Sobirova Nargiza Muxtor qizi

nsobirova124@gmail.com

Dotsent PhD Fazilova Sharifa Mirhamidovna

Kirish: Mieloma (M) — bu suyak iligida plazmatik hujayralarning infiltratsiyasi va skelet suyaklarining keng miqyosda zararlanishi bilan tavsiflanadigan o'smali kasallik bo'lib, u og'riq va suyak sinishlari bilan kechadi (S.S. Bessmeltsev, 2013).

Maqsad: Ko'p mielom bilan og'rigan bemorlarning laborator diagnostikasini baholash.

Materiallar va tadqiqot usullari: 2024–2025 yillar davomida QKTVKda Gematologiya bo'limi ko'p mieloma tashxisi qo'yilgan 55 nafar birlamchi bemor tekshirildi. Bemorlar kasallikning turli bosqichlarida bo'lgan. Ulardan 29 nafari ayollar, 26 nafari erkaklar bo'lib, yoshi 38 dan 70 yoshgacha edi. Nazorat guruhini 20 nafar sog'lom shaxs tashkil etdi.

Usullar: Qonning umumiy tahlili, kengaytirilgan leykoformula va trombositlar sonini hisoblash.

Natijalar: Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, mieloma bilan og'rigan bemorlarning periferik qonida eritrotsit ko'rsatkichlari pasaygan: Gemoglobin: $74,8 \pm 7,6$ g/l., Eritrotsitlar soni: $2,4 \pm 0,08 \times 10^{12}/l.$, Rang ko'rsatkichi: $0,93 \pm 0,01.$, Gematokrit: $23 \pm 0,3\%$, Eritrotsitlarning o'rtacha hajmi: $98 \pm 3,3$ mkl., Eritrotsitdagi o'rtacha gemoglobin miqdori: $31,2 \pm 0,3$ pg., Eritrotsitdagi o'rtacha gemoglobin konsentratsiyasi: $287,8 \pm 10,2$ g/l.

Nazorat guruhida bu ko'rsatkichlar quyidagicha bo'lgan: Gemoglobin: $130,2 \pm 12,1$ g/l., eritrotsitlar soni: $4,5 \pm 0,47 \times 10^{12}/l.$, rang ko'rsatkichi: $0,9 \pm 0,012.$, gematokrit: $42 \pm 2,3\%$, eritrotsit hajmi: $96 \pm 3,0$ fl., eritrotsitdagi gemoglobin miqdori: $28,8 \pm 1,2$ pg., eritrotsitdagi gemoglobin konsentratsiyasi: $109 \pm 10,3$ g/l. Mieloma bilan og'rigan bemorlarda eritrotsitlarning cho'kish tezligi sezilarli darajada oshgan — o'rtacha $72,8 \pm 5,6$ mm/soat. Trombositlar soni mieloma bilan og'rigan bemorlarda $76,4 \pm 3,2 \times 10^9/l$ ni tashkil etgan, nazorat guruhida esa bu ko'rsatkich $186,3 \pm 26,8 \times 10^9/l$ bo'lgan. Leykotsit ko'rsatkichlarida quyidagi o'zgarishlar kuzatildi: 6 bemorda leykotsitlar soni oshgan — o'rtacha $12,8 \pm 2,5 \times 10^9/l$. Leykoformulada: Neytrofillar: $33,4 \pm 5,9\%$, Monotsitlar: $7,2 \pm 2,13\%$, Limfotsitlar: $52,8 \pm 6,3\%$, Plazmatik hujayralar: $6,0 \pm 1,4\%$. 17 bemorda leykotsitlar soni normal darajada — $7,9 \pm 1,14 \times 10^9/l$, ammo absolyut limfotsitoz aniqlangan. Nazorat guruhida leykotsitlar soni

$5,8 \pm 2,31 \times 10^9/l$ bo'lgan. Neytrofillar — $39,4 \pm 4,8\%$, monotsitlar — $5,8 \pm 1,9\%$, limfotsitlar — $54,3 \pm 5,4\%$. **Xulosa:** Periferik qon tahlillari shuni ko'rsatdiki, mieloma bilan og'rigan bemorlarda normoxrom, normotsitar anemiya, trombositopeniya va eritrotsitlarning cho'kish tezligining sezilarli oshishi ($72,8 \pm 5,6$ mm/soat) kuzatiladi. Leykotsit ko'rsatkichlari tahlilida 6 bemorda leykotsitlar soni oshgan va plazmatik hujayralar miqdori 6%gacha yetgan.